




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik 2021- yil yanvar-sentabr


Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi, % da



2019- yil



2020- yil



2021- yil

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMDagi ulushi **27,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga **23,6** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida **4 109** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,5** foizga ko'p demakdir.

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1 596** ta, sanoatda **929** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **507** ta, yashash va ovqatlanishda **241** ta, qurilishda **214** ta, tashish va saqlashda **107** tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

98,3



Sanoat

6,2



Qurilish

75,0



Investitsiya

41,7



Savdo

85,1



Xizmatlar

57,9



Eksport

10,4



Import

23,7



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

20 849




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

4 109

2021- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2021- yil yanvar- sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

38,5 %



Sanoat

17,7 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,4 %



Qurilish

8,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,8 %



Tashish va saqlash

3,3 %



Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2 %




Axborot va aloqa

1,1 %



Boshqa faoliyat turlari


10,9 %



2019- y. 2020- y. 2021- y.

Yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2020- y.

■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2020- y. yanvar-sentabr

■ 2021- y. yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Navoiy shahri – 16,6 %, Xatirchi tumani - 13,1 %, Karmana tumani – 12,7 %, Qiziltepa tumani – 11,7 %, Navbahor tumani – 10,9 %, Uchquduq tumani – 9,8 %, Zarafshon shahri – 8,1 %, Konimex tumani – 5,2 % hissalariga to'g'ri keldi.





Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2021yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda

1 596 ta

Sanoatda

929 ta


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida

507 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

241 ta

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2021- yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga nisbatan 23,6 birlikni tashkil etdi.




Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*



2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga hududlar bo'yicha ko'rsatkich Tomdi tumanida 53,0 birlik, Navoiy shahrida 31,0 birlik, Uchquduq tumanida 28,8 birlik, Karmana tumanida 28,7 birlik, Konimex tumanida 27,8 birlikni Navbahor tumanida 23,3 birlikni Qiziltepa tumanida 21,8 birlikni G'ozg'on shahrida 21,5 birlikni Nurota tumanida 21,2 birlikni Zarafshon shahrida 17,3 birlikni Xatirchi tumanida 16,5 tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra*


Eng yuqori ko'rsatkich
Tomdi tumani – 53,0 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich
Konimex tumani – 27,8 birlik.

Past ko'rsatkich
Xatirchi tumani – 16,5 birlik.


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida – 53,0 birlik, Navoiy shahrida – 31,0 birlik, Uchquduq tumanida – 28,8 birlik, Karmana tumanida -28,7 birlik, Konimex tumanida - 27,8 birlik, Navbahor tumanida - 23,3 birlik, Qiziltepa tumanida – 21,8 birlik, G'ozg'on shahrida - 21,5 birlik, Nurota tumanida esa - 21,2 birlikni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabrda har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda *



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi



2019- y. 2020- y. 2021- y.
Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da

2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **23,6 %** ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar- sentabrida **25,7 %**). YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Navoiy viloyati	6,2	75,0	57,9	41,7
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	1,7	78,8	33,2	30,9
Zarafshon	99,1	36,5	55,0	55,3
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	16,0	96,6	60,4	87,2
Konimex	100,0	100,0	86,3	14,1
Qiziltepa	81,5	72,8	79,1	78,4
Navbahor	53,7	100,0	77,3	69,8
Nurota	93,8	100,0	84,6	61,2
Tomdi	100,0	100,0	90,5	2,2
Uchquduq	100,0	100,0	82,1	47,7
Xatirchi	44,0	89,7	80,9	87,1

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 38,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 10,4 % ni tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi


2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Tomdi tumanida – 100,0 % Zarafshon shahrida – 99,5 %, Qiziltepa tumanida – 98,3 %, Nurota tumanida – 93,1 %, Konimex tumanida – 87,6 %, Karmana tumanida – 19,7 % ni, eng past ko'rsatkich esa Navoiy shahrida – 2,8 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **126,3** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **23,7 %** ni tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2021- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Konimex, Tomdi tumanlarida – 100,0 %, Nurota tumanida – 99,9 %, Zarafshon shahrida – 98,8 %, Uchquduq tumanida – 98,7 %, Qiziltepa tumanida – 97,7 %, Xatirchi tumanida – 75,0 %. Eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – 8,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 364,3** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (840,8 mlrd. so'm), Navoiy shahri (787,5 mlrd. so'm), Xatirchi tumani (397,0 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (386,7 mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (259,5 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida (31,9 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **6,2 %** ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Konimex, Tomdi va Uchquduq tumanlarida (100,0 %), Zarafshon shahri (99,1 %), Nurota tumani (93,8 %), Qiziltepa tumani (85,1 %), Navbahor tumani (53,7 %), Xatirchi tumani (44,0 %), Karmana tumanida (16,0 %) tashkil etdi. Navoiy shahrida (1,7 %) esa kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5 474,2** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,1** % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan **10,1** % ga oshgani kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (1500,3 mlrd. soʻm), Karmana (884,1 mlrd. soʻm), Xatirchi (720,0 mlrd. soʻm), Qiziltepa (681,5 mlrd. soʻm), Zarafshon shahri (615,7 mlrd. soʻm) va Uchquduq (302,3 mlrd. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2 717,4** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **75,0 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **117,1 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (725,2 mlrd. so'm), Qiziltepa (426,6 mlrd. so'm), Karmana (372,3 mlrd. so'm), Xatirchi (299,2 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (290,7 mlrd. so'm), Navbahor (273,2 mlrd. so'm), Nurota (227,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 016,9** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,9 %** ni tashkil qildi va oʻsish surʻati 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **113,8 %** ni tashkil qildi.


2021- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Navoiy shahri (608,4 mlrd. soʻm), Karmana tumani (472,9 mlrd. soʻm), Qiziltepa tumani (387,8 mlrd. soʻm), Xatirchi tumani (370,9 mlrd. soʻm), Zarafshon shahri (366,1 mlrd. soʻm) va Navbahor tumani (258,1 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keldi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2021- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,6 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 46,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 89,2 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 076 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 614 (57,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 384 (35,7 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 78 (7,2 %) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 11,3 % (121 ta), sanoatda – 14,2 % (153 ta), qurilishda – 7,4 % (80 ta), savdoda – 44,1 % (475 ta), xizmatlar sohasida – 23,0 % (247 ta) ni tashkil etdi.

2021- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar






Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (238 ta), Qiziltepa (162 ta), Karmana (157 ta), Xatirchi (142 ta), Navbahor (108 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2021- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon baliqchilik xo'jaligi sohasida 62,0 % ni, sanoat sohasida 58,8 % ni, xizmatlar sohasida 58,7 % ni va qurilish sohasida 56,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo sohasida 38,3 % ni, xizmatlar sohasida 35,2 % ni, qurilish sohasida 35,0 % ni, tashkil etdi.

2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2021- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 68,0 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 66,9 % ni, sanoatda 66,7 % ni, xizmatlar sohasida 64,4% ni, tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qurilish sohasida 32,5 % ni, xizmatlar sohasida 31,6 % ni, savdo sohasida 31,3 % ni tashkil etdi.

